



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 25-dekabr, payshanba,
146 (24.176)-son

O'zbek xalq
maqoli

Tuqqan
elga jon
tortmasa
ham, qon
tortar

Ombudsman monitoringi

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) va uning mintaqaviy vakili tomonidan tegishli jamoat tashkilotlari jalb etilgan holda Kattaqo'rg'on shahridagi 7-sonli tergov hibsonasi, Past Darg'om tumanidagi 37-sonli jazoni ijro etish manzil koloniyasi hamda Samarqand shahridagi vaqtinchalik saqlash hibsonalarida monitoring tadbirlari o'tkazildi.



Monitoringlar davomida ushbu muassasalarda mahkumlar uchun yaratilgan sharoitlar va ularning oila a'zolari bilan uzoq muddatli uchrashuvlar o'tkazish imkoniyatlari ko'zdan kechirildi, bu mas-kanlarda saqlanayotgan shaxslarning murojaatlari eshitildi.

– Tergov hibsonasida mahbus va mahkumlarga qonunchilik doirasida zarur sharoitlar yaratilgan, – deydi Kattaqo'rg'on shahridagi 7-son tergov hibsonasi boshlig'i o'rinbosari Uchqun Normurodov. – Jazo muddatini o'tayotgan fuqarolar ozodlikka chiqqach, biror kasb-hunar yoki foydali mehnat bilan shug'ullanishi uchun kasb-hu-narga o'qitilmoqda. Hozirda muassasada chilangarlik, santexniklik, tikuvchilik, durad-gorlik va boshqa hunarmandchilik ustaxo-nalari tashkil etilgan. Mahkumlar bu yerda o'ndan ortiq yo'nalishda kasb-hunar o'rga-nish bilan birga mehnatiga yarasha haq ham olmoqda.

O'rganishlar davomida respublikadagi jazoni ijro etish muassasalarida mutasaddi idoralar bilan hamkorlikda sayyor qabul va uchrashuvlar tashkil etilib, mahkumlarning muammolariga yechim topilayotgani, na-munali xulqi bilan ajralib turgan va tuzalish yo'lga o'tgan mahkumlarga tayinlan-gan jazolar yengiligi almashtirilayotgani ma'lum qilindi.

– Monitoring tadbirlarini o'tkazishdan asosiy maqsad mahkumlarning muro-

jaatlarini o'rganib, ularni to'g'ri yo'lga qaytarish, oilasining farovonligini ta'min-lash hamda mutasaddi davlat idoralari hamkorligida huquqiy, tibbiy va psixologik ko'mak berish, – deydi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombuds-man) o'rinbosari Bekzod Narimonov.

– Shu maqsadda Ombudsman va uning huzuridagi jamoatchilik guruhlar tomoni-dan harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga 728 marta monitoring tashriflari amalga oshirildi. 7 mingdan ortiq mahkum va mahbuslar bilan jamoaviy hamda 4381 nafari bilan xoli tarzda suhbatlar o'tkazildi. Monitoring tashriflari davomida ushbu muassasalar-da saqlanayotgan shaxslarning yashash sharoitlari, ovqatlanishlari, mehnat qilish hamda tibbiy yordam ko'rsatish holatlari va sifati, saqlanayotgan shaxslar orasida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ish-lar hamda sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilayotganligi va boshqa masalalar o'rganilib, aniqlangan kamchiliklar bar-taraf etildi. Mahkum va mahbuslarning oila a'zolariga 34 million so'mga yaqin moddiy yordam pullari ajratilishiga ko'maklashildi.

Bu galgi o'rganishlar davomida aniqlangan muammo va kamchiliklar ye-chimini bo'yicha tegishli davlat tashkilotlari, Oliy Majlisga tahliliy ma'lumotlar taqdim etiladi.

F.R.O'ZIBOYEV.

“Yil ayoli – 2025” tanlovining respublika bosqichi bo'lib o'tdi. Jamiyat hayotida faol ishtirok etib, tashabbuskorligi, mehnatsevarligi bilan ajralib turgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, gender tenglik g'oyalarini keng targ'ib etish maqsadida o'tkazib kelinayotgan “Yil ayoli” tanlovida g'oliblar turli nominatsiyalar bo'yicha taqdirlandi.

Bosh sovrin Kattaqo'rg'on shahrida faoliyat yuritayotgan “Anvarjon biznes invest” MChJ rahbari Gulmira Jumayevaga nasib etdi.

Bosh vazir o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar qo'mitasi rahbari Zulayho Mahkamova g'olibga Prezident sovg'asi – avtomobil kalitini hamda “Yil ayoli – 2025” statuetkasini topshirdi.

Gulmira Jumayeva Kattaqo'rg'on shahrida bir necha yillardan beri chiqin-dini qayta ishlash bilan shug'ullanadigan korxonani boshqaradi.

– Bundan ancha yillar avval oila boqish maqsadida bir necha muddat xorijda ishlab, chiqindi saralash bilan shug'ullanganman, – deydi G.Jumayeva. – Dastlab o'zim ham chiqindi saralagan bo'lsam, keyinchalik ish boshqaruvchi bo'lib ishladim. Yurtimizga qaytib kelgach, chiqindilarni poligonga olib borib yoqib yuborishlarini yoki ko'mib tashlashlarini bilib, bu sohada ishlash haqida o'ylab qoldim. Chiqindidan ikkilamchi xomashyolarni saralab, un-



Xushxabar



SAMARQANDLIK TADBIRKOR

“Yil ayoli” bo'ldi

dan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga qaror qildim. Bu sohada ishlayotgan tashkilotlarga bordim, tadbirkorlar bilan suhbatlashdim. Biroq ko'pchiligi bu ish bilan shug'ullanishimga ishonmadi. «Ayol kishi ekan, qo'li-dan kelmaydi, bir-ikki oy ishlab, tashlab ketadi», deb o'ylashdi. Lekin men tanlagan yo'lmdan qaytmadim. Shu yo'l orqali nafaqat oila boqishim, balki katta daromad topishimni bilardim.

Gulmira Jumayeva tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun dastlab «Anvarjon

biznes invest» MChJ klasteri tashkil etib, davlat-xususiy sherikchilik asosida «Toza hudud» MChJning Kattaqo'rg'on tumani bo'limini xususiy lashtirib oldi.

Ushbu korxonaga qarashli 8 ta mini-zavodda plastik, polimer, metall, shisha, rezina, karton-qog'oz kabi 13 turdagi chiqindini qayta ishlash yo'lga qo'yilgan. Qolaversa, u viloyatimizdan tashqari Farg'ona, Jizzax hamda Toshkent shahri va viloyatidagi bir qator qurilish mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni xomashyo bilan ta'minlab keladi.

(TUMAN)ga gazeta kerak

Bugungi zamonaviy axborot asrida-ya? Qo'limizdagi telefonda hamma yangilik, gap-so'z ko'rinib, dunyoning nafasi sezilib turibdi-ku, deyishga shoshilmang.

Qavs ichiga balki “viloyat”, biror soha yoki tarmoq, balki o'zingiz istagan hududni ham qo'yib olishingiz mumkin. Bunisi sizning gazeta bilan nechog'lik tanishligingiz, gazeta o'qishingiz va tahririyatlar, ularda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkorlar mehnatiga qanday baho berishingizga bog'liq. Sarlavhani bunday nomlashimizga Paxtachi tumanining “Paxtachi” gazetasi tashkil etilganining 90 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tadbirlar turtki bo'ldi.

(Davomi 4-sahifada) >>>



Ko'pni ko'rgan kayvonilarimiz odatda xotirjamlikdan ayirmasin, deb duo qiladi. Tajribada ko'ryapmizki, bu ne'mat o'z-o'zidan bo'lmas ekan... Aytish mumkinki, parlament yuqori palatasining o'n ikkinchi majlisida ushbu masala yuzasidan tegishli talab va normalar belgilandi.

Xususan, “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi Qonun muhokama etiladi.

Qayd etish lozimki, bugungi kunda texnologiya rivojlanishi bilan turli elektron uskunalar, jumladan, portativ lazerli nur tarqatgichlar ham keng omalashmoqda. Bu qurilmalar arzon, oson yetib boriladigan va ko'p hollarda ko'ngilochar yoki ta'lim maqsadlarida ishlatiladi.

Biroq ularidan noqonuniy yoki nomuvofiq foydalanilishi jamoat xavfsizligiga jiddiy tahdid solishi mumkin.

Xususan, samolyotlarning uchishi yoki qo'nishi paytida ularning ekipajiga lazer nurlarining yo'naltirilishi qo'nish yoki parvoz jarayonida ekipaj diqqatini chalg'itib, halokat xavfini oshiradi.

Bundan tashqari, jamoat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga lazer nurlari yo'naltirilishi natijasida ko'zning vaqtincha ko'rmay qolishiga, bu esa sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tartibsizliklarning oldini olishda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Ko'pgina xorijiy davlatlarda lazer qurilmalaridan foydalanishini cheklovchi va nazorat qiluvchi qonunlar qabul qilingan.

Xavfsizlik — xotirjamlik asosi

bu borada muhim qonun o'zgartishlari ma'qullandi

Senat yalpi majlisida “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi Qonun muhokamasi jarayonida yuqoridagi muammolar tilga olindi.

Mamlakatimizda ham jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida ushbu turdagi qurilmalarni nazorat qilish, ularni litsenziyalash va noqonuniy foydalanish holatlarini jazolash bo'yicha choralar qatorida mazkur qonun ishlab chiqilgan.

Qonun bilan amaldagi qonunchilikka mahalla huquq-tartibot maskanlarining hamda tayanch punktlarining tarkibini, ularda xizmat qiluvchi inspektorlarning vakolatlarini aniqlashtirishga, patrul-post xizmati saf bo'linmalarining mansabdor shaxslari tomonidan tuzilgan ma'muriy bayonnomalarni ko'rib chiqish hamda jazo chorasini qo'llash vakolatiga ega shaxslarni aniqlashga, shuningdek, portativ lazerli nur tarqatgichlarning qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlik belgilashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Fikrimizcha, qonunning qabul qilinishi mahal-

lalarda xavfsiz muhit yaratish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda jamoat tartibini saqlash ishlari samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Senat yalpi majlisida “Huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi Qonun ham ko'rib chiqildi.

Qayd etish lozim, qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga, “Qurol to'g'risida”gi hamda “Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to'g'risida”gi Qonunlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Xususan, hududlarda huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish maqsadida sovuq qurolni olib yurish huquqbuzarligini bir yil davomida takroran sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanmoqda. Jumladan, ushbu huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib yoki musodara qilmay, bazaviy hisoblash

Yalpi majlisdan keyin



miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Jinoyat kodeksining 126-1-moddasining to'rtinchi – sakkizinchi qismlarida nazarda tutilgan oilaviy zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etganlik sudlanganlarga sudlanganlik holati tugallanganidan yoki olib tashlanganligidan yoxud amnistiya akti qo'llanilganidan keyin o'n yil davomida ruxsatnoma bermaslikka sabab bo'ladi. Agar huquqbuzarda o'qotar qurol mavjud bo'lsa, ushbu o'qotar qurol va uning o'q-dorilari olib qo'yilishi nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, ichkilikka ruju qo'ygan shaxslarni majburiy davolanishga yuborish uchun bir yil mobaynida bir martadan ortiq ma'muriy javobgarlikka tortish emas, balki bir yil davomida bir marta ma'muriy javobgarlikka tortilganlik asos bo'lishi belgilanmoqda.

Bunda shaxsni majburiy davolanishga muhtoj deb topish vakolatini olis hududlarda ixtisoslashtirilgan tumanlararo tibbiy komissiyalarga ham berish, shuningdek, narkologik ekspertizalarni o'tkazish uchun ixtisoslashtirilgan tumanlararo tibbiy komissiya tuziladigan olis hududlar ko'yxati Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanishi nazarda tutilmoqda.

Qonun mahallalarda xavfsiz muhitni mustahkamlash va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha joylarda profilaktika inspektorlarining ishi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Maryam NIYOZOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

Bu vazifa keyingi yillarda olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi hisoblanadi. Va eʼtiborlisi, unga ilmiy asosda va xalqaro tajribaga tayanib eʼtibor qaratilmoqda.
Kambagʻallikka tushish sabablari har xil ekani, yechimi ham alohida-alohida boʻlishi kerak, degan munosabat bunga yaqqol misol boʻladi. Albatta, koʻrilayotgan choralar oʻz yoʻliga, erishilayotgan natija qanday boʻlyapti? Viloyatda bu boradagi ahvol qanday?

OYLIK OʻRTACHA 4,5-5 MILLION SOʻM
- Amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida ishsiz aholini daromadli qilish va kambagʻallikni qisqartirish masalasi turibdi, - deydi viloyat hokimi oʻrinbosari kotibiyati mudiri Rivojiddin Mahqulov. - Shunga koʻra, yaratilgan imkoniyatlar va ajratilgan moliyaviy resurslardan unumli foydalanib, oʻtgan 10 oyda viloyatimizda 42,5 mingta yoki rejaga nisbatan 113 foiz mikroloyiha tashkil etilib, buning natijasida 87 mingta, qiymati 954 million dollarlik 770 ta yangi loyihani ishga tushirish hisobiga 20,1 mingta, tijorat banklari tomonidan aholini doimiy ishga joylashtirish va tadbirkorlikka jalb etish yoʻnalishida 129 mingta yangi ish oʻrinlari yaratildi.

Shuningdek, qishloq xoʻjaligi yoʻnalishida 66,5 ming, qurilish yoʻnalishida 12,1 ming kishi daromadli qilindi. Ushbu sohalarga jami 8,1 trillion soʻm kreditlar ajratildi. Buning natijasida yanvar-oktabr oylarida 315 ming nafar yoki rejaga nisbatan 116 foiz aholi bandligi taʼminlandi.

Misol uchun, Kattaqoʻrgʻon tumanidagi Mundiyo mahallasida "Boyras tekstil" MCHJ tomonidan qiymati 13 milliard soʻmlik trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirilib, yon-atrofdagi mahallalarning 100 nafar ishsiz xotin-qizlari bandligi taʼminlandi. Korxona yana 100 nafardan ortiq xotin-qizlarni ish bilan taʼminlash quvvatiga ega.

Bundan tashqari, Nurobodda "Cemix" MCHJning qurilish materiallari ishlab chiqarish loyihasi doirasida 250 ta ish oʻrni yaratildi. Bandligi taʼminlangan fuqarolarning oʻrtacha oyligi 4,5 - 5 million soʻmni tashkil etmoqda.

ISHSIZLIK YANA 1 FOIZGA QISQARADI
Hisob-kitoblarga koʻra, yil yakuniga qadar yana 21 ming nafar aholi bandligi taʼminlanib, viloyatda ishsizlik darajasi yil boshidagi 5,4 foizdan 4,5 foizga qisqartirildi.

Olib borilgan tizimli ishlar natijasida bugungi kunda mahallalarning 325 tasi ishsizlikdan xoli, 615 tasi jinnoyatchilikdan va 415 tasi oilaviy ajrimdan xoli hududga aylantirilgan.

Mutasaddilarning qayd etishicha, "Kambagʻallikdan farovonlik sari" dasturi orqali yangicha tizim va barcha moliyaviy instrumentlar yaratib berilgan. Oʻtgan 10 oy davomida ushbu imkoniyatlardan foydalanib tuzilgan individual rejalar asosida viloyat boʻyicha 43,3 mingta

Kambagʻallik kamayib, ishsizlik pasayadi

Sarhisob

oilaga daromadini oshirishga qaratilgan 66 mingta barqaror bandlik xizmatlari hamda 70,7 mingta boshqa ijtimoiy xizmatlar koʻrsatildi.

Natijada 1-noyabr holatiga 36,8 mingta oila kambagʻallikdan chiqarilib, kambagʻallik darajasini yil boshidagi 7,5 foizdan 4,9 foizga tushirishga erishilgan.

Barcha choralarni koʻrish orqali yil yakuniga kambagʻallik darajasini viloyatda 4 foizga tushirish rejalashtirilmoqda.

BANDLIK FAQAT RAQAM EMAS ...

Odamlarni daromadli qilish kerak ekan, deb koʻr-koʻrona chora-tadbirlarni amalga oshirish yaramaydi. Qilinayotgan saʼy-harakatlar bandlikni taʼminlashdan tashqari aniq natijalar ham keltirishi zarur.

Viloyatda bu borada amalga oshirilayotgan ishlarga birgina misol keltirsak – Ishtixon tumanidagi "Ishtihan yimin import export group" MCHJ 2024-yildan eksport faoliyatini boshlagan. Bugungacha 2,7 million dollarlik, shundan 1,8 million dollarlik mayiz mahsulotlarini Xitoyga eksport qilgan.

Korxona taʼsischisi Jao YuU (Zhao Yue) bilan suhbatda undan faoliyatini kengaytirish, yaʼni eksport faoliyatini 2-3 barobarga oshirish uchun qanday koʻmak zarurligi soʻralganda, bu borada barcha imkoniyatlari mavjudligi, qancha mayiz boʻlsa shuncha eksport qilish imkoniyati borligini bildirdi.

Shunga koʻra, endi tumandagi uzumchilikka ixtisoslashgan 22 ta mahalladagi fermer xoʻjaliklari va aholi tomonidan qaratilgan mayiz mahsulotlarini bozor narxidan kam boʻlmagan qiymatda mazkur korxonaga yetkazib berish boʻyicha alohida tizim yaratilyapti.

Natijada 22 ta mahalladagi mingdan ziyod oila doimiy daromad manbaiga ega boʻlishi barobarida, korxona eksport hajmi 10-15 million dollarga koʻpayadi. Eng muhimi, ushbu mahallalar ishsizlikdan va kambagʻallikdan xoli hududga aylanadi.

IXTISOSLASHGAN MAHALLALAR

Aholi bandligini taʼminlash va kambagʻallikni qisqartirishda avvalambor, mahallalarning ixtisoslashuviga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Yil boshida 30 foiz yoki



324 ta mahalla ixtisoslashuvi past boʻlgan, 400 tasi ixtisoslashgan, 357 tasi chuqur ixtisoslashgan mahallalarni tashkil etgan.

Mahallabay ish olib borilishi natijasida chuqur ixtisoslashgan mahallalar 497 ta boʻlishiga erishildi.

Misol uchun, Bulungʻurdagi Kildon, Sayiltepa va Kichik Kildon mahallalaridagi 2310 ta xonadonning 324 gektar tomoqqa va 37 gektar ijaraga berilgan yerlarida nok yetishtirilmoqda. Kildon mahallasida "Saidmurod Begali bogʻi" fermer xoʻjaligi rahbari Alisher Fayzullayev tashabbusi bilan mahallaning nokga ixtisoslashuvi 87 foizga yetdi.

Ushbu mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, ularga qulay muhit yaratish maqsadida davlat byudjetidan 1,2 milliard soʻm mablagʻ ajratilib, 2 kilometr yoʻl asfaltlashtirilgan va transformator oʻrnatilgan.

"Saidmurod Begali bogʻi" fermer xoʻjaligining 2 ta 100 tonnalik muzlatkichli omborxonasiga davlat tomonidan 50 kVtli quyosh paneli oʻrnatib berildi.

NARPAY TAJRIBASI YOKI YORDAM MAQSADLI BOʻLADI

Kelgusi yildan dasturlar doirasida ajratilayotgan moliyaviy instrumentlar - ssuda, kredit mahallalarning ixtisoslashuviga qarab, sohalarga yoʻnaltirishni yoʻlga qoʻyish kerak, degan taklif berilyapti.

Chunki amaldagi tartibga koʻra, dasturlar doirasida ("Kichik biznesni qoʻllab-quvvatlash", "Oilaviy tadbirkorlik", "Biznesga birinchi qadam", "Mahalla loyihasi") berilayotgan kreditlar mahallalarning ixtisoslashuvidan kelib chiqib emas, balki asosan oʻzini oʻzi band qilgan fuqarolarning talabi asosida turli maqsadlarga ajratib kelinmoqda. Buning natijasida ajratilgan kreditlarning samaradorligi past boʻlib, koʻp hollarda qaytarilishi muammoga aylanmoqda.

Misol uchun, Narpaydagi Oʻzbekiston mahallasiga qarashli Duoba qishlogʻida 241 ta xonadonning barchasi karam (qizil karam, aysberg, brokelli) ekadi. Bugungi kunda ushbu mahallada dasturlar

Havo nega ifloslanyapti?

Kundan-kunga havoda qum va changlar koʻpayib, atmosferaning ifloslanib borayotgani barchani tashvishga solmoqda. Xoʻsh, buning sabablari nimada? Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining geografiya va tabiiy resurslar kafedrası professori, geografiya fanlari doktori Vahob Rafiqovga ushbu savol bilan murojaat qildik.



- Samarqand davlat universiteti geografiya va ekologiya fakultetida Orol dengizi muammolariga bagʻishlangan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, fakultetimiz yoshlari, ilmiy tadqiqotchilar, professor-oʻqituvchilarimiz asosiy eʼtiborni Orol dengizidagi kechayotgan geoeologik muammolarga qaratgan. Bugungi ekologik vaziyatni yumshatish, dengiz tubida shakllangan Orolqum choʻlini minimallashtirish masalalar va u yerda tarkib topayotgan yangi landshaftlarning geodezini oʻrganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Fakultetimizda besh nafar ilmiy tadqiqotchimiz aprel va oktabr oylarida Orol dengizining qurigan tubida geoeologik ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishni yoʻlga qoʻydi. Bu ilmiy-tadqiqotlarning mazmuni qurigan Orol dengizi tubida ellik-oltmish yil oʻtganidan keyin shakllangan yoki shakllanish arafasida kechayotgan landshaftlarning maʼlum tomonlarini yigʻish va dinamikasi qaysi tomonga oʻzgarib borishi toʻgʻrisidagi tadqiqotlarga qaratilgan.

Orol dengizida kechayotgan va shakllanib boʻlgan Orolqum choʻlining atrofga taʼsiri yoki u yerdagi qum, tuz, chang migratsiyasini oʻrganish ham tadqiqotlarimizning ustuvor yoʻnalishi hisoblanadi. Ellik-oltmish yillik

materiallar shuni koʻrsatadiki, bu yerda shakllangan qum, tuzlarning uchib borish depressiyasi, yaʼni uning gidrodinamik holati, avvalo, Qoraqalpogʻiston Respublikasi yerlarining shoʻrlanishi va suvlarning minerallasish darajasining oshishiga va aholining turli kasalliklarga chalinishiga sabab boʻlishi aniqlangan.

Tibbiy geografik nuqtai nazardan olib qaralganda, Orol mintaqasi bartaraf etilishi kerak boʻlgan vazifalarni oldimizga qoʻyadi. Dengiz tubidan koʻtarilayotgan chang, qum, tuzlarning migratsiyasi shamolning taʼsirida, shamolning yoʻnalishiga qarab atmosfera havosining maʼlum bir nuqtalarida uchishi orqali turli hududlarga kirib keladi. Faqat Orol dengizi hududidan uchayotgan chang va tuzlar emas, shaharlarda, jumladan, Toshkent shahrida atmosferaning ifloslanishi bir necha omillar bilan bogʻliq. Shulardan biri Orolqum choʻlining ulushi boʻladigan boʻlsa, ikkinchi tomondan, yerlarning kuzgi, qishki haydalishi natijasida ham tuproqning quruq qismi shamolga koʻtarilishi oqibatida ham changlar hosil boʻladi.

Atmosferaning ifloslanishida asosiy sabablardan biri bu sanoat

korxonalaridan chiqadigan zaharli kimyoviy elementlarning atmosferaga tarqalishidir. Sanoat korxonalarida filtrlar oʻrnatilishi maqsadga muvofiq boʻladi. Bundan tashqari, qishloq xoʻjaligi issiqxonalaridan chiqayotgan tutunlar ham havoning ifloslanishiga olib kelmoqda. Bugun issiqxonalar koʻmir, oʻtin, mazutdan foydalanadi, hatto avtomobil shinalarini yoqayotganiga ham guvoh boʻlyapmiz.

Oxirgi paytlarda transport vositalarining keskin darajada koʻpayishi va ulardan chiqayotgan zaharli gazlarning oshib ketishi ham atmosferaning ifloslanishiga olib keladi. Shu bois hukumatimiz tomonidan shaharlarda, jumladan, Toshkent shahrida ham ogʻir mashinalarning harakatlanishini maʼlum bir vaqtlarda cheklash boshlangan.

Shuningdek, kuzgi xazonrezgilik – qurigan barglarni yigʻib, yoqib yuborish holatlari ham havoni zaharlaydi. Undan chiqadigan is gazlari aholi salomatligiga yomon taʼsir qiladi. Yaxshisi, xazonlarni yoqmasdan, ularni yigʻib, shahar chetidan maʼlum bir uzoqlikda oʻrta qazib, oʻsha yerda koʻmik, bir necha yildan keyin uni boshqa bir oʻgʻit sifatida foydalansa, maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, daraxtlarning qir qilishi va oʻtin sifatida yoqilishi ham yashillikning yoʻqolishi, changlarning koʻpayishiga sabab boʻlmoqda.

Inson tabiatning bir boʻlagi va tabiat bilan hamohang yashashga majbur. Shuning uchun tabiatdagi muvozanat umuman buzilmasligi kerak. Inson tabiatdan oʻziga yarasha hosildorlikni, mahsulotni olar ekan, undan shunday ratsional foydalanishi kerakki, albatta u yana oʻzining tiklanish xususiyatiga ega boʻlishi lozim. Agar biz tabiatdan shafqatsizlarcha foydalanadigan boʻlsak, tabiat ham oʻzining aks-sadosini beradi.

Xurshida ERNAZAROVA yozib oldi.



Kun mavzusi

Shu yilning oʻtgan davrida viloyatga 3 million nafar xorijiy, 5,3 million nafar mahalliy sayyoh tashrif buyurdi. Sayyohlarning qolish kunlari 2,5 kundan 3 kunga, turizm xizmatlari eksporti 606 million dollarga yetkazildi.

Samarqandga 11 oyda 8,5 milliondan ziyod sayyoh keldi

Kelgusi yil turizm sohasida yangi loyihalar ishga tushiriladi

Yil boshidan buyon 3789 oʻrinli 228 ta mehmonxona, xostel va oilaviy mehmon uylari tashkil etilib, Samarqandning turistik brendi va dizayn kodi ishlab chiqildi, 50 dan ziyod madaniy koʻngilochar tadbir va festivallar oʻtkazildi. Turizm salohiyati yuqori boʻlgan Orolqum Tersak va Omonqoʻton, Nurobod tumanidagi Oqsoy mahallalariga turizm qishlogʻi maqomi berildi. Viloyatimizning turizm salohiyatini keng targʻib etish maqsadida turizm sohasi vakillari tomonidan dunyoning oʻndan ziyod davlatlarga turizm targʻibot kompaniyalari oʻtkazildi. Shuningdek, 20 ga yaqin davlatning nufuzli OAV vakillari hamda yirik turizm kompaniyalari xodimlari uchun viloyat boʻylab info-turlar tashkil etildi va 600 million auditoriya qamrab olindi.

Viloyatda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan master-reja asosida kelgusi yil Urgutning Omonqoʻton va Qoratepa mahallalarida 80 gektar maydonda yirik turizm loyihalari amalga oshirildi. Jumladan, Qoratepa suv ombori va togʻ yonbagʻirlarida kemping va kapsuladan "Eco village" shaharchalari, Omonqoʻton mahallasida xizmat koʻrsatish nuqtalari va "Omonqoʻton" milliy qoʻriq-onasining rekreatsion zonasida sayyohlar uchun kuzatuv maydoni va yoʻlaklar tashkil



etiladi. Tumanning Chorchinor mahallasini turizm qishlogʻiga aylantirish rejalashtirilgan boʻlib, 25 million dollarlik investitsiya mablagʻi hisobiga zamonaviy ovqatlanish maskanalari, kanat yoʻli, ekouylar, oʻtovlar, mehmonxona, servis va savdo obyektlari faoliyati yoʻlga qoʻyiladi va natijada 300 dan ortiq ish oʻrni yaratiladi.

Bundan tashqari, viloyatda tungi vaqtda 24/7 rejimidagi turizm koʻchalari tashkil etilib, beshta mahallaga turizm qishlogʻi maqomi beriladi va Urgut, Nurobod, Samarqand tumanlari hamda Kattaqoʻrgʻon suv ombori hududlari birlashgan holda turizm zonasi direksiyasi tashkil etiladi. Shuningdek, Urgut, Toyloq, Samarqand, Past Dargʻom tumanlari Dargʻom kanali sohili hududlarida tadbirkorlar rekreatsion maskanlar tashkil qiladi. Bulungʻur tumanida 25 gektar maydonda dam olish maskanlarini tashkil qilish boʻyicha boʻsh turgan yer maydonlari auksionga chiqarilmoqda. Ushbu hududda esa ekoturizm, rekreatsion, gastronomik, madaniy koʻngilochar xizmatlar, restoranlar, tematik park va "eko qishloq" loyihalarini amalga oshirish koʻzda tutilgan.

Joʻrabek SUYUNOV, viloyat turizm boshqarmasi boshligʻi oʻrinbosari.



Yong'in xavfsizligi oyligi



Yong'indan ogohlik — xavfsiz hayot garovi

Kuz-qish mavsumi boshlanishi bilan uylarda isitish moslamalaridan foydalanadi, elektr jihozlari ko'proq qo'llaniladi, tabiiy gaz sarfi oshadi. Bir qaraganda oddiy ko'ringan bu holatlar mutaxassislarni bejiz tashvishga solmaydi. Chunki har yili mavsumda ehtiyotsizlik oqibatida yuz bergan yong'inlar va baxtsiz hodisalar inson hayotiga jiddiy zarar yetkazmoqda.

Shu yil 1–30-dekabr kunlari yurtimizda “Yong'in xavfsizligi oyligi” o'tkazilmoqda. Ayni kunlarda viloyatdagi mahallalar, uy-joylar, korxonalarda profilaktika ishlari yanada kuchaytirilib, aholining ogohlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'tgan yil qish kechasi bir xonadonda isitish pechi yoniq holda, dudbo'ron tozalanmagan uchun is gazi xonaga tarqalgan. Bu e'tiborsizlik oqibatida ota-ona ikki bolasi bilan og'ir holatda shifoxonaga yotqizilgan. Yaxshiyamki, qo'shni xonadon egasi vaqtida tez yordam va favqulodda vaziyatlar xodimlariga murojaat qilgan. Aks holda nima bo'lishi sizga ayon. Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin. Masalan, xonadon sohibining gaz plitasi uchun o'zi “improvizatsiya” qilib ulagan rezina shlang yorilib ketgani tufayli gaz xonaga sizib chiqadi. Ayol kishi ertalab pechkada olov yoqmoqchi bo'ladi va portlash sodir bo'ladi. Xayriyatki, o'sha uyda jiddiy jabrlanuvchilar bo'lmadi, ammo uyning yarmi vayron bo'ldi.

Shuningdek, qishda elektr isitish moslamalaridan noto'g'ri foydalanish ham ko'p hollarda yong'in keltirib chiqaradi. Bir mahallada yolg'iz yashaydigan kishi elektr isitkichini tokka ulab, uning yonishi uchun mo'ljallanmagan narsalarni qo'ygan. Isitkich qizib ketib, yong'in chiqqan. Atrofdagilarning yordami bilan

olov katta hududga tarqalishining oldi olingan, lekin u kishining uy-joyi zararlangan, o'zi jarohat olib, nogiron bo'lib qolgan.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, bunday hodisalarning umumiy sababi — aholi orasida gaz va elektr uskunalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilmaslik, profilaktika ishlarini o'z vaqtida amalga oshirmaslik, eng muhimi, “mening uyimda bunday bo'lmaydi”, degan ishonchdir.

“Yong'in xavfsizligi oyligi” doirasida aynan shunday holatlarning oldini olish, odamlarni hayotiy misollar orqali ogohlantirish, har bir xonadonda xavfsizlik madaniyatini mustahkamlash asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Mahalla-ko'chalarda xonadonlararo tushuntirish ishlari, isitish uskunalarini tekshirish, fuqarolarga maxsus qo'llanmalar tarqatish, maktab va bog'chalarda bolalar uchun ogohlik darslari o'tkazilmoqda.

Qish mavsumida har birimizdan mas'uliyat talab qilinadi. Elektr uskunasini ishlayotgan bo'lsa, uni qarovsiz qoldirmang. Gaz uskunalarini mutaxassissiz o'rnatmang. Pech yonishini nazoratsiz qoldirmang. Bir lahzalik e'tiborsizlik butun bir uyning, hatto oilaning taqdiriga daxl qilishi mumkin.

X.ZOIROVA,
viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi katta o'qituvchisi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni Samarqand viloyati shu yilning 11 oyida tadbirkorlik subyektlaridan kelib tushgan 589 ta murojaatning 54 foizida murojaatchilarning huquqlari tiklanib, talablari qanoatlantirildi.

Mazkur murojaatlarning 19 foizi soliq, 13 foizi yer, kadastr, arxitektura, 10 foizi bank, moliya va kredit, 11 foizi davlat idoralarining qarorlari yoki mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari, 8 foizi tekshiruvlar natijasidan norozilik hamda 8 foizi infratuzilmaga va boshqa masalalarga oid murojaatlarni tashkil qildi.

Murojaatlarni o'rganish jarayonida ularda keltirilgan vajlarni chuqur o'rganish va imkon qadar qanoatlantirishga hamda tadbirkorlarning buzilgan huquqlarini tiklashga e'tibor qaratilib, natijasi bo'yicha 2 milliard 970 million so'mlik qarzdorliklar undirildi, 1 milliard 812 million so'mlik moliyaviy jarimalar bekor qilindi hamda 5 milliard 712 million so'mlik ortiqcha undirilgan to'lovlar qaytarilishi ta'minlandi.

724 GEKTAR YER o'zboshimchalik bilan o'zlashtirilgan

Yerdan maqsadli foydalanilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish hamda aniqlangan qonunbuzilish holatlari bo'yicha qat'iy choralar ko'rish kadastr agentligining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Noqonuniy qurilmalarni aniqlash va tegishli choralar ko'rish borasida kadastr agentligi viloyat boshqarmasi va uning tuman (shahar) bo'limlarida faoliyat ko'rsatayotgan yer inspektor xodimlari planshet va “body-camera” bilan to'liq ta'minlanib, davlat yer nazorati tadbirlarini ushbu qurilmalar yordamida “E-Yer nazorat” axborot almashinuv tizimida joyning o'zida rasmiylashtirmoqda.

Xususan, joriy yilning 11 oyida viloyat hududida jami 4256 holatda 724 gektar yer maydoni o'zboshimchalik bilan egallab olingani aniqlandi. Ushbu holatlarni bartaraf etish yuzasidan yer inspektor xodimlari tomonidan yer qonunbuzilishini sodir etgan shaxslarga berilgan tushuntirish va yozma ko'rsatmalar natijasida 85 gektar yer qonunbuzilish holatlari ixtiyoriy bartaraf etilib, dastlabki holatiga qaytarildi.

Yer qonunbuzilishi ixtiyoriy bartaraf etilmagan 2862 holat (494 gektar yer) yuzasidan ma'muriy javobgarlikka tortish hamda noqonuniy qurilmalarni

buzdirish va egallangan yer maydonini qaytarish uchun sud idoralariga da'vo arizalar kiritildi.

Sug'oriladigan yer maydonlarini qishloq xo'jaligidan boshqa maqsadlar uchun, jumladan, sanoat va fuqarolik obyektlari, unumdor tuproq talab etilmaydigan ilg'or texnologiyalarning yangi usullari qo'llaniladigan issiqxonalar qurilishi uchun ajratishga yo'l qo'yilmaydi.

Yer nazorati tadbirlarida jinoyat alomatlari mavjud bo'lgan 487 holat bo'yicha 93 gektar yer maydonidagi qonunbuzilish holatlari yuzasidan prokuratura organlariga hujjatlar taqdim etildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sud organlariga kiritilgan 2862 ta da'vo arizaning 2148 tasi qanoatlantirilib, 384 gektar yer maydoni sudlarning hal qiluv qarorlari asosida ijroga qaratildi.

Yer nazorat tadbirlarida 393 holatda 2297 gektar yer maydonidan maqsadsiz foydalanilayotgani aniqlanib, tuman hokimliklariga taqdimnomalar kiritildi. Mazkur taqdimnomalar natijasida 187 gektar yer maydoni tuman hokimliklari zaxirasiga qaytarildi.

Fozilbek XUDAYQULOV,
Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi boshlig'i.

Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasidan TADBIRKORGA 1 MILLIARD so'm mablag' undirib berildi

Tadbirkorlik subyektlarining murojaatlarini tunu kun qabul qilish, hal etish maqsadida “TADBIRKORLAR VIRTUAL OFISI” axborot portali faoliyati yo'lga qo'yilgan. Joriy yilning 11 oyida ushbu portal orqali Samarqand viloyatida faoliyat yurituvchi tadbirkorlardan 806 ta masala yuzasidan 717 ta murojaat kelib tushdi hamda 776 ta masala ko'rib chiqilib, 222 tasi hal etildi, 511 tasi yuzasidan huquqiy tushuntirish berilishi nazoratga olindi.

Ushbu portal orqali kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi va muddatiga rioya qilmaganligi bois 8 nafar mansabdor shaxsga nisbatan ma'muriy jazo choralar ko'rilishi ta'minlandi. Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkazilayotgan tekshiruvlar hisobi yuritilib, ularning qonuniyligi “Yagona davlat nazorati” axborot tizimi orqali doimiy ravishda o'rganib borilmoqda.

Xususan, o'tgan davrda 584 holatda qonunbuzilish holatlari aniqlanib, 53 holatda noqonuniy tekshiruvlar o'tkazilgani, 531 ta holatda tekshiruv o'tkazishning amaldagi tartiblari buzilgani kuzatilib, nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslariga nisbatan qonuniy choralar ko'rilishi ta'minlandi.

Umuman, o'tgan davrda jami



211 nafar, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlarining murojaatlarini ko'rib chiqish muddatlarini buzganligi uchun 81 nafar, noqonuniy tekshiruv o'tkazish va tekshirish tartibini buzganligi uchun 65 nafar, davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini buzganligi uchun 36 nafar, litsenziya va ruxsatnomalar tartibi buzilganlik holati bo'yicha 24 nafar mansabdor shaxs va xizmatchilarga nisbatan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib, jami 782,4 million so'm miqdorida jarima jazolari tayinlandi.

Murojaatlar asosida tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini ta'minlash yuzasidan nazorat qiluvchi va davlat organlariga 5 ta taqdimnoma va 41 ta xulosa hamda sudlarga 5 ta da'vo arizalari kiritildi.

Ayni kunlarda viloyatimizda “O'zenergoinspeksiya” viloyat hududiy boshqarmasi, “Hududgaz Samarqand” gaz ta'minoti filiali hamda viloyat IIB korruptsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish bo'limi xodimlari hamkorligida tabiiy gazdan foydalanish holatlari bo'yicha nazorat tadbirlari o'tkazilmoqda.

Past Darg'omda gazdan noqonuniy foydalanish holati aniqlandi

Past Darg'om tumani Nayman mahallasi hududida o'tkazilgan tadbirda mazkur hududda yashovchi fuqaro Abdualim Rustamov issiqxona tashkil etib, xonadonida o'rnatilgan gaz hisoblash uskunasiidan tashqari holda tabiiy gazdan noqonuniy foydalanib kelgani aniqlandi.

O'tkazilgan tekshirish jarayonida Vazirlar Mahkamasining



2024-yil 31-maydagi 319-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini”ning 129-bandi talablari buzilgani ma'lum bo'ldi. Mazkur holat yuzasidan qoidabuzarlik dalolatnomasi rasmiylashtirildi.

Aniqlangan qoidabuzarlik bo'yicha dastlabki va umumiy da'vo muddati uchun amalga oshirilgan qayta hisob-kitoblarga ko'ra, ta'minotchi korxonaga 1 milliard 239 million so'mlik 413 028 kub/met tabiiy gaz miqdorida zarar yetkazilgan.

Mazkur holat yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli choralar ko'rilmogda.

Dilshod SAYPIYEV,
“O'zenergoinspeksiya” viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Ismoilova Marjot Mamatkulovnaga (2025-yil 17-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Sug'diyona maskani, 14/12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Sharipova Muxaramga (2009-yil 29-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Saidov Tolib Abduvasiyevichga (2025-yil 24-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Mamatqulov Naimjan Narqulovichga (2025-yil 1-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Yakubova Nazira Fayziyevnaga (2021-yil 17-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Ablakulov Saitmuxammatga (2021-yil 21-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat

etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 76-uy.

Urgut tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hoshimov G'olib Baxtiyorovich notarial idorasida marhum Raxmonova Oydin Ruzikulovnaga (2024-yil 27-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hoshimov G'olib Baxtiyorovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Urgut tumani Amir Temur ko'chasi, 65-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga marhum Ibragimova Mariyaga (2020-yil 20-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Abduraxmanova Xalimaga (2014-yil 10-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Salomov Ergashga (2012-yil 4-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

BEKOR QILINADI

Past Darg'om tumanidagi “GLOBAL KANS” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 304881681) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Urgut tumanidagi “Bahrin” mahalla fuqarolar yig'inining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Urgut tumanidagi 88-umumta'lim maktabining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Past Darg'om tumanidagi Muradov Raxmankul Muxtarovich yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 31512613950053) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



Шаҳарсозликка бағишланган умр

Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети илм-фан йўлида
жонбозлик кўрсатиб келаётган олимлари билан ҳам машхур. Шундай
олимлардан бири техника фанлари доктори, Россия архитектура ва
қурилиш академияси маслаҳатчиси, профессор Илҳомжон Шукуровдир.



И.Шукуров 1956 йилда туғилди. Самарқанд туманидаги 1-мактаб-ни тамонлагач, 1978 йилда Москва қурилиш-муҳандислик институтининг шаҳар қурилиши факультетида ўқиди. Олийгоҳни муваффақиятли битириб, йўлланма билан Самарқанд давлат архитектура-қурилиш институтида меҳнат фаолиятини бошлади. 1986 йилда Ўзбекистоннинг муҳим шаҳарсозлик муаммолари мавзусида номзодлик диссертациясини ҳимоя қилди. Институтда катта ўқитувчи, кафедра мудири лавозимларида ишлаш баробарида «Экоимфал» илмий-ишлаб чиқариш корхонасига директорлик қилди. Самарқанд вилояти қурилиш корхоналари учун экологик норматив ҳужжатларни тайёрлаб берди. 1999-2003 йилларда Самарқанд шаҳар табиатни муҳофаза қилиш инспекцияси раҳбари вазифасини бажарди.

2004 йилда Россия фан ва олий таълим вазирлигининг таклифига биноан Москва давлат қурилиш университетининг шаҳарсозлик кафедраси докторант-лигига қабул қилинди. 2007 йилда техника фанлари докторлиги илмий даражасини ҳимоя қилди. Ушбу илмий ишлар россиялик олимлар эътиборини тортди ва Илҳомжон Садриевич Москва автомобиль-йўл университетининг транспорт иншоотлари факультети декани лавозимига тайинланди. 2009-2010 йилларда Қозон давлат архитектура-қурилиш университетига кафедра мудири лавозимида фаолият кўрсатди. 2010 йилда у Москва давлат қурилиш университети профессорлигига таклиф этилди. 2013 йилдан Москва шаҳар экспериментал-лойиҳа илмий-тадқиқот институтининг бош мутахассиси лавозимида ишлай бошлади. Бу ерда И.Шукуров ташаббуси билан Москва шаҳрида автотураргоҳларни жойлаштириш бўйича янги меъёрий ҳужжат ишлаб чиқилди. Шунингдек, олим раҳбарлигида биринчилардан бўлиб, Москва шаҳри учун ўта долзарб масалалардан бири - тураржойларнинг "реновация назарияси" математик аппарати яратилди.

Устоз 2014 йилдан Москва давлат қурилиш университети қошидаги Шаҳарсозлиқни бошқариш ва кўчмас мулк иқтисодиёти институти проректори лавозимида меҳнат қилиб, Россиянинг бир қатор шаҳарлари бош режаларини ишлаб чиқиш бўйича илмий консультант, экспертлик вазифаларини бажарди. Душанбе шаҳрининг бош режасини тузишда ҳам устознинг таклифлари кенг қўлланилди.

И.Шукуров 2022 йилда Ўзбекистон Республика-

сининг "Эл-юрт умиди" жамғармаси таклифига биноан Тошкент архитектура-қурилиш университетининг шаҳарсозлик инфратузилмалари кафедраси профессори лавозимига тайинланди. Айни пайтда Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университетига факультет декани, кафедра мудири ва профессори лавозимларида фаолият юритиб келмоқда.

Илҳомжон Садриевич Ўзбекистон шаҳарсозлиги бўйича 15 та меъёрий ҳужжат раҳбари, шаҳарсозлиқнинг долзарб масалаларига бағишланган 500 дан ортиқ илмий мақолалар, 29 та дарслик ва ўқув қўлланмалар, 9 та монография, 200 га яқин илмий-амалий лойиҳалар, 5 та патент муаллифи.

Домла патент олган «Йўл қопламаси маҳсулоти» бўёқли пластмассадан ясалиб, махсус шиша мунчоқлар билан безатиладиган йўл ўртасидаги ёки четдаги чи-зиқлар бўлиб, улар автомобил фараларидан чиқадиган ёруғлиқни қайтаради. Бу эса белгиларни кечаси, туман ва ёмон об-ҳавода кўринадиган қилида ва хавфсиз-лиқни оширади. Бугунги кунда ушбу ихтиро дунёнинг қўллаб-мамлakatларида қўлланилмоқда.

Устознинг бевосита маслаҳатчилиги ва раҳбарлигида 4 нафар фан доктори, 8 нафар фан номзоди (PhD), 30 дан ортиқ магистр диссертациялари тайёрланди.

И.Шукуров бугун эко тураржойларни лойиҳалаш бўйича халқаро эксперт сифатида фаолият юритмоқда. Таниқли олим Европанинг энг илғор 200 нафар фан арбоблари қаторида эътироф этилади. Бу ҳақда Швейцариянинг махсус сертификатини қўлга киритган. Жумладан, Россия, Қозғистон, Тожикистон ва Вьетнам давлатларининг бир қанча олий таълим муассасаларидаги талабаларга маъруза ўқийди.

Домла яқинда ўзини камолга етказган қишлоқ тарихини мукамал ўрганиб, «Хизир эли ёки ярим дунё тарихи» деб номланган монография чоп эттирди. Асарда Самарқанд, Тошкент, Бухоро ва Хоразм номларининг янги генезиси ва таҳлилини ифода этган.

И.Шукуров ибратли оила бошлиғи - икки ўғил, бир қизининг отаси, 8 нафар неваранинг сеvimли бобоси.

Олим ва моҳир педагог Илҳомжон Шукуровни 70 ёши билан табриқлаб, келгусидаги илмий изланишларига омад тилаймиз.

Собир БОБОЕВ,
Карим ҒАНИЕВ,
техника фанлари докторлари,
профессорлар.

Мақоллар – xalq donishmandligi xazinas

Мақоллар – бу har bir xalqning asrlar davomida to'plagan tajribasi, aql-zakovati va hayotga bo'lgan qarashlarini o'zida mujassam etgan qisqa, lo'nda va mazmunli iboralari hisoblanadi. Ular hayotning turli vaziyatlarini bir jumla ichida namoyon etadi. Shu sababdan maqollar har bir millatning ma'naviy merosida alohida o'rin tutadi.



Мақоллар о'xshatish, qiyoslash, takror, ritm kabi badiiy vositalarga boy bo'lib, bir necha so'zga ibora bilan inson tasavvuriga ta'sir qiladi. Masalan, "Til – dilning tarjimoni", "Sog' tando - sog'lom aql", "Aytilgan so'z – ottilgan o'q", "Bir mayzni qirg kishi yer", "Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni".

Maqol orqali insonga nasihat ham, ogohlantirish ham, donolik ham yetkazilishi mumkin. Maqollar tarbiyaviy ahami-

yatga ega bo'lib, to'g'rilik, halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, bag'rikenglikni targ'ib qiladi. Shu bois bolalar tarbiyasida, ta'lim jarayonida, oilaviy suhbatlarda maqollardan ko'p foydalanamiz.

Chunki ularda xalqning tili, fikrlash tarzi va madaniyati, tarix va qadriyatlar aks etadi.

Bugungi rivojlanayotgan zamonda ham maqollarning qadri pasaygani yo'q. Ular juda ko'p sohalarida ishlatilib ke-

linmoqda. Xususan, maqollar ijtimoiy tarmoqlarda, reklamlarda va boshqa nutq jarayonlarida uchun qo'llanilmoqda. Misol uchun, "Vaqtning tejagan – pulni tejaydi", "Ko'p ishlagan emas, to'g'ri ishlagan yutadi", "Kichik g'oya – katta ishing uchquni", "Reja yo'q joyda – tavakkal ko'p", "O'zini yenggan – dunyoni yengar" kabi maqollar bugun ko'p ishlatilayapti.

Nodira ALIJONOVA,
SamDCHTI o'qituvchisi.



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Bu nashr ham boshqa ko'plab gazetalar qatori sobiq tuzum davriga aholiga axborot yetkazish (chunki o'sha paytda boshqa ommaviy axborot vositasi bo'lmagan), partiya g'oyalarini targ'ib etish va mafkura targ'ibotchisi sifatida tashkil etilgan. Nomi ham ("Uchqun") o'sha davrga mos bo'lgan, albatta. Gazeta dastlabki paytlarda rayon partiya qo'mitasi birinchi kotibi A.Shirinxo'jayev rahbarligida chop etilgani uning qanchalik muhim "qurol" bo'lganini ko'rsatadi. Unda kichik bir tumanning barcha hududlari va sohalarini qamrab olishga harakat qilingan. Masalan, gazetaning 1935-yildagi 10-sonida 51 muallif imzosi bilan 60 ta xabar berilgan. Albatta, bu materiallar juda katta, salmoqli emas, to'rt-besh satrdan iborat bo'lgan. Ushbu xabarlar-ni faqatgina tahririyatning 10-15 nafar xodimi yozmagan, jamoatchi muxbirlar (ularni ishchi-dehqon muxbirlari ham deb atashgan) – o'qituvchi va o'quvchilar, kolxozchilar, turli kasb egalari yo'llab turgan, xuddi hozirgidek istagan odam ijtimoiy tarmoqdagi sahifasida turli xabarlarini, atrofidagi voqea-hodisalarni berib borayotgani kabi. Lekin ular bugungidek "layk" yig'ilish, obunachilarini ko'paytirish uchun yolg'on-yashiq, "oldi-qochdi" xabarlarini tarqatmagan, jamiyat uchun, umumanfaati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yozgan.

Ta'sis etilgan yil gazeta 1200 nusxada chop etilgan ekan. Bugun – oradan 90 yil o'tib, "Paxtachi" gazetasi 1700 nusxada chiqmoqda. O'sish "yuqori"-ya? Gazeta muassisi – tuman hokimligi mas'ullari tahririyatni qo'llab-quvvatlab, kelgusi yilda uning tiraji ko'payishini aytishdi.

Gazetaning bosma nusxasi kam bo'lsa ham uning ijtimoiy tarmoqlardagi "Muhim24.uz" nomi bilan yuritiladigan sahifalarini kuzatuvchilar, obunachilari umumiy soni 70 mingdan oshadi. Ana shu minglab kuzatuvchiga nafaqat Paxtachi tumani hayoti, balki respublikamiz va xorijdagi voqea-hodisalar haqidagi axborotlarni, jamiyatdagi nuqson va illatlar haqidagi tahlillarni tunu kun, hozirgi til bilan aytganda, 24/7 rejimida uzatish gazeta tahririyatining 10 nafarga yaqin xodimi va ular atrofiga jamlangan jurnalistikaga havasmand yoshlar tomonidan tarqatiladi. Bu materiallar faqat maqola tarzida emas, videolavha, videosharh, audio xabar shaklida berilmoqda. Tahririyat xodimlari bugun "gazetchi", teleboshlovchi, reportyor, montaj ustasi, o'z o'rnida, sun'iy intellektidan faol foydalanuvchi.

Uch yil oldin tahririyat qoshida "Kelajak jurnalistlari" to'garagi tashkil etilgan edi. Bugungi kunda to'garak respublika bo'ylab 50 nafardan ortiq yoshni birlashtirgan holda onlayn tarzda ishlayotgan. Yana ko'plab yoshlar tahririyatga kelib, tajribali jurnalistlardan kasb sirlarini o'rganyapti va jamoada o'ziga xos ijodiy maktab shakllanmoqda.

– Bugun axborot asrida xabar va yangiliklar internet orqali soniyalar ichida butun dunyoga tarqatilyotgan bir paytda bosma ommaviy axborot vositalarini nashr etish va tarqatish oson kechmayapti, – deydi "Paxtachi" gazetasi muharriri Sanjar Qurbonov. – Odamlar gazetani axborot yetkazuvchi vosita, deb qabul qilgan va shuning uchun bugun ijtimoiy tarmoqlar ommalashgach,

bu vazifasini bajara olmay qoldi. Lekin jamiyat hayoti, voqea-hodisalarga nisbatan aholi fikrini shakllantirish, turli muammolarni tahlil qilish, tanqid orqali yechim taklif qilish funksiyasini yo'qotgan emas. Biz bugun gazeta-miz faoliyatini shu kabi talablar asosida tashkil etyap-miz, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarimizni gazeta orqali targ'ib qilyapmiz. Gazeta o'z vaqtida obunachi qo'lga tegishi uchun kurerlik xizmati tashkil etdik, ya'ni gazeta-mizni bosmaxonadan kelgan zahoti o'zimiz tarqatamiz. Gazetani bir hafta – o'n kunda chop etsak ham tuman hayotiga doir xabarlarini har kuni, voqea-hodisalarni o'sha paytning o'zida kuzatuvchilaringizga yetkazamiz. Samarqand viloyati hokimligi ko'magida 2020-yilda qurib berilgan matbuot uyida videolavhalarni suratga olish, montaj qilish uchun zarur sharoit qilib olganmiz. Imkon qadar so'nggi rusumdagi fotoapparat, kamera va boshqa kompyuter texnikalari olganmiz, bularsiz ish oldinga ketmasligini yaxshi bilamiz. O'zimizning imkoniyatimiz yetmaganda tuman hokimligi yordam beryapti. Chunki biz tumanning asosiy ommaviy axborot vositasi sifatida avvalo, Paxtachi va paxtachiliklar manfaati uchun xizmat qilamiz, tuman hokimligining bu boradagi ishlarini yoritamiz, oqsayotgan yoki muammolar to'planib qolgan sohalarini tanqid qilish orqali tuman rahbariyatiga yo'nalishni to'g'ri olishga ko'maklashamiz. Tumanimiz rahbarlari buni yaxshi tushunadi va shuning uchun ham bizni doim qo'llab-quvvatlaydi.

Ha, gazeta tashkil etilganining 90 yilligini muhim sana sifatida nishonlash va viloyat ommaviy axborot vositalari vakillarini Paxtachiga taklif etib, o'zaro tajriba almashishga imkoniyat yaratish, tahririyatning sobiq xodimlari hamda bugungi jamoasi mehnatlarini e'tirof etish ham muassisning e'tibori, qo'llab-quvvatlashi natijasi, albatta.

Tumanda yaqinda ish boshlagan hokim Qayum Xushboqov boshqa sohalar qatori gazeta tahririyati bilan ham yaqin hamkorlikda ishlayotganini qayd etib, gazeta ijodkorlarini jamiyatning yuzi, tumanning eng ilg'or ziyollari sifatida e'tirof etdi. Shu tahririyatda mehnat qilib, tuman ijtimoiy hayotida faol qatnashgan ijodkorlarga minnatdorlik bildirdi, ularga hokimlik tomonidan esdalik sovg'alari taqdim etildi.

– Qirg yildan ortiq vaqt gazeta tahririyatida ishlab, oila tebratdim, elga tanildim, ozmi-ko'pmi, tumanimiz rivojiga hissa qo'shdim, – deydi mehnat faxriysi Izzatulla Norquvov. – Pensiyada bo'lsam-da hozir ham tez-tez tahririyatga kelib turaman, yoshlarning ish jarayonlarini kuzatib, ularga havas qilaman. Bugun jurnalistika sohasida ishlash oson emas, lekin qaniydi yosh bo'lib qolsam-u, ulardek jo'shib ishlasam deymen.

"Paxtachi" gazetasida faoliyat ko'rsatgan va ayni paytda "Zarafshon" va "Samarkandskiy vestnik" gazetalarini bosh muharriri Farmon Toshev, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, paxtachining fidoyi farzandi Ismat Sanayev, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi raisi Akram Haydarov va boshqalar tuman bilan bir vaqtda tashkil etilgan "Paxtachi" gazetasining qariyb bir asrlik yo'li haqida gapirib, bugungi jamoa ishiga muvaffaqiyat tiladilar.

G'olib HASANOV.
Husan ELTOYEV (surat).

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 842 nusxada chop etildi. Buyurtma 597. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.



Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda